

## KURSANTLARGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA KASBIY KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Jarilkasinova Gulnaz Xojabayevna  
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20741216>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada harbiy oily ta’lim muassasalarida kursantlarning ingliz tilida kasbiy kompetentligini axborot texnologiyalari vositasidan foydalangan holda rivojlantirishdan iborat bolgan fikrlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompetentsiya, axborot, texnologiya, kommunikatsiya, muloqot, analitik, pedagogik mexanizm, ko‘nikma, muhit.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, uning ta’lim tizimini isloh qilishi informatika o‘qitish tizimini ancha o‘zgartirdi. Zamonaviy ta’lim tizimi doimiy ravishda o‘sib rivojlanib borayotgan axborot hajmiga, jamiyat va axborot o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning yuqori tezligiga moslashishga intilmoqda, katta hajmdagi ma’lumotlardan keng foydalanish nafaqat jamiyat va shaxs rivojlanishi uchun muhim afzalliklar namoyon bo‘ladi. Shuningdek, yangi voqeliklarni hisobga olgan holda an’anaviy dars doirasida samarali assimilyatsiya bilimlarining yangi usullarini ishlab chiqish va qo‘llash zaruratiga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni asosida ta’lim sohasida amalga oshirilgan tub islohotlar jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk, har tomonlama barkamol zamonaviy shaxsni tarbiyalashga qaratilgan va yoshlarni ta’lim sohasida amalga oshirayotgan islohotlarining faol ishtirokchisiga aylantirishdan iborat. Qarorda belgilangan asosiy vazifalardan biri talabalarga birdan ortiq xorijiy tillarni o‘qitish va o‘zlashtirishlari uchun zarur shart–sharoit yaratish bo‘lib, bu, albatta, ko‘p tillilik muhitida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni taqozo etadi.

Chet tili, xususan ingliz tili darsining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud: bir tomondan, o‘rganishning barcha bosqichlarida talabalar o‘rganilayotgan til tizimi, boshqa mamlakatlar haqida turli xil ma’lumotlarni o‘rganishga majbur bo‘lishadi, boshqa tomondan esa, tilning parallel rivojlanishi mavjud bo‘lib, gapirish, yozish, tinglab tushunish va yozish singari asosiy nutq malakalari va bu jarayonning muvaffaqiyat darajasi ko‘p jihatdan talab qilinadigan muddatlarda bilimlarni egallash darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi o‘qituvchi tomonidan keltiriladigan til materialni tushuntirish, idrok etish va tushunishga chambarchas bog‘liq bo‘ladi. An’anaviy didaktik vazifalardan biri materialni turli yo‘llar bilan o‘zlashtirishni oshirish, masalan, taqdimotning ravshanligi, tizimli idrok etish, kursantlarning qiziqishi va faolligini oshirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda ingliz tili darslarida axborot texnologiyari, xususan kompyuterdan foydalanish zamonaviy xorijiy til o‘qitish metodologiyasining ajralmas qismiga aylangani bor haqiqatdir. Mazkur masalaga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan N.V.Kubrak, G.K.Selevko, G.V.Lavrentiev, N.B.Lavrentieva N.A.Neudaxina, I.N.Tabuyeva kabi tadqiqotchilarning asarlarida lingvodidaktikada kompyuterdan foydalanish masalasi keng ko‘rib chiqilgan. Hozirgi kunda paydo bo‘layotgan texnik imkoniyatlar o‘quv materiallarini qo‘llash formatini kengaytiradi va ilmiy tahlilni talab qiladi. Bundan tashqari, raqamli jamiyatda yangi avlodlar rivojlanishining o‘ziga xos

xususiyatlari axborotni idrok etish va o'zlashtirishdagi o'zgarishlarni belgilaydi. Tadqiqotlarda zamonaviy avlod til o'rganuvchilariga xos bo'lgan matn formatini o'quv video materiallar va boshqa turdagi tasvirlar bilan almashtirish tendentsiyasini qayd etiladi. Taxmin qilish mumkinki, raqamli pedagogik texnologiyalar uchun bunday muammoni hal qilishda kompyuterdan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kursantlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va rivojlantirishda eng muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ingliz tilini o'qitish jarayonida AKTdan foydalanish bilim olishni faollashtirish, muloqot madaniyatini yuksaltirish, mustaqil tahlil qilish va yaratish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlar G.T.Maxkamova, D.R.Pulatova va A.A.Musayeva kabi tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, AKTdan maqsadli foydalanish talabalarning nutqiy faolligi, muloqot qobiliyati va kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan kommunikativ strategiyalarni samarali egallashga sharoit yaratadi. Xususan, D.R.Pulatova AKTning interaktiv imkoniyatlari orqali xorijiy til o'rganuvchilarda ritmik nutq, tezkor fikr almashish va adaptiv muloqot ko'nikmalarining rivojlanishini qayd etadi.

Shu bilan birga, ingliz tadqiqotchisi D.Xeyl (D.Heale) ta'kidlaganidek, elektron ta'lim muhitida talabalar lingvistik bilimni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni qayta ishlovchi, tahlil qiluvchi va qo'llovchi faol subyektaga aylanadi. Aynan shu jarayon kasbiy-kommunikativ kompetentlikning markaziy mehvarini tashkil etadi.

Rus olimi Ye.S.Polat esa distansion texnologiyalar asosida gorizontaal muloqotning kengayishi, kursantlarda “sovremennaya professionalnaya kommunikatsiya modeli”ni rivojlantirishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, axborot texnologiyalari orqali amalga oshirilgan topshiriqlar talabalarda akademik, amaliy va kasbiy tilda muvaffaqiyatli muloqot qilib ketish qobiliyatini shakllantiradi.

Mahalliy olimlar J.J.Jalolov fikricha, AKT asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning faolligini oshirib, ularni mustaqil izlanuvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Ular ta'kidlaydilar, zamonaviy axborot muhitida ingliz tilini o'qitish nafaqat til ko'nikmalarini, balki axborot madaniyati, raqamli savodxonlik va kasbiy etik muloqotni ham qamrab oladi.

AKTning pedagogik imkoniyatlari quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

M. Uilkinson (M. Wilkinson) fikricha, raqamli platformalar har bir kursant uchun shaxsiy trayektoriya yaratish imkonini beradi. Bu talabalarga o'z sur'atida o'qish, materialni qayta ko'rib chiqish va o'z xatolarini tezkor tahlil qilishga imkon yaratadi.

N.M.Ahmedova ta'kidlaganidek, video, audio, virtual simulyatorlar talabalarda real kasbiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi, bu esa tilning amaldagi qo'llanilishini mustahkamlaydi.

Rus tadqiqotchisi O.E.Kuznetsova fikriga ko'ra, AKT asosidagi mustaqil ta'lim talabalarda mas'uliyat va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu kompetensiyalar harbiy va huquqiy sohalaridagi kursantlar uchun o'ta muhim hisoblanadi.

D.X.Saydazimova ta'kidlaganidek, elektron forumlar, onlayn diskussiyalar, virtual muloqot maydonlari talabalarning kasbiy nutqini faollashtirish uchun samarali platforma hisoblanadi.

Angliyalik olim J. Xarmer (J. Harmer) fikriga ko'ra, raqamli muhitdagi tahlil, taqqoslash, qiyosiy muloqot talablarning creativity & critical thinking qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa zamonaviy til o'qitishning asosiy maqsadlaridan biridir.

O'zbek tadqiqotchisi D.R.Pulatova ta'kidlaganidek, onlayn platforma va raqamli ilova kursantni real kommunikativ muhit va autentik til materiallari bilan yuzma-yuz qiladi.

Kursantlarga ingliz tilini o'qitishda AKTdan foydalanish kasbiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish va rivojlantirishda ulkan imkoniyatlarni yaratadi. Olimlari fikrlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, AKT – bu faqat texnik vosita emas, balki kommunikativ, analitik, ijodiy, axborot madaniyati va kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi pedagogik mexanizmdir. U kursantlarning kasbiy faoliyatda to'laonli muloqot qilish, zamonaviy axborot muhitiga moslashish va mustaqil o'rganish qobiliyatlarini mustahkamlaydi.

Quyidagi chizmada ingliz tili o'qitishda AKT vositalaridan foydalanishning asosiy pedagogik imkoniyatlarini tizimli ravishda aks ettiradi. Rasm o'quv jarayonining mazmuni, shakli, metodlari va natijalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi.

Ingliz tilini o'qitish jarayonida AKTdan foydalanish kursantlarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. M.Kanale va M.Svaynning kommunikativ kompetentlik nazariyasiga ko'ra, samarali til o'qitish uchun muloqot, madaniy anglash va tanqidiy fikrlashni bir butun jarayon sifatida rivojlantirish zarur. Shuningdek, rus olimi A.A.Leontev ta'limda faoliyatga asoslangan yondashuvni qo'llab-quvvatlab, AKT imkoniyatlari kursant faolligini kuchaytirishini ta'kidlaydi.

1. O'quv jarayonini individuallashtirish. AKT vositalari har bir talaba qobiliyati va tempiga mos individual o'quv trayektoriyasini yaratishga imkon beradi. Ingliz tili fanida bu, ayniqsa, lisoniy daraja, gapirish va tinglab tushunish qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishda muhimdir.

2. Multimedia vositalar orqali o'qitish samaradorligini oshirish. Videodarslar, interaktiv platformalar va virtual simulyatsiyalar real til muhitini yaratadi. Ingliz olimi D.Crystal fikriga ko'ra, multimedia tilning tabiiy dinamikasini ko'rsatib, kursantda ongli qabul qilish va tez anglash jarayonini kuchaytiradi.

3. Mustaqil ta'limni faollashtirish. Onlayn manbalar, elektron darsliklar va o'z-o'ziga nazorat vositalari talabalarda mustaqil izlanish va o'z ustida ishlash malakasini rivojlantiradi. Bu esa kelajakdagi ingliz tili o'qituvchisi sifatida ularning kasbiy avtonomiyasini kuchaytiradi.

4. Kasbiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish. AKT orqali talabalar xalqaro forumlar, onlayn muloqot platformalari va virtual hamkorlik muhitlarida haqiqiy til muammolari bilan ishlaydi. Bu esa ularni kelajakda kursantlar bilan samarali muloqot qilishga tayyorlaydi.

5. Ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni kuchaytirish. A.Leontev ta'kidlaganidek, faoliyatning rag'batlantirilishi ijodiy yondashuvni kuchaytiradi. AKTdagi interaktiv vazifalar, projekt ishlari va raqamli kontent yaratish jarayoni talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

6. Real kommunikatsiya muhitini ta'minlash. Onlayn muloqot platformalari (forum, chat, speaking clubs) orqali talabalar jonli til muhitini his etadilar. M.Kanale fikriga ko'ra, haqiqiy kommunikativ vaziyatlar kompetentlik rivojining asosiy shartidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki hozirgi ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish ingliz tili ta'limida talabalar kasbiy kompetentligini - ayniqsa, kommunikativ, metodik, ijodkorlik va mustaqillik kabi asosiy komponentlarni - tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Multimediya, onlayn muhit va interaktiv texnologiyalar zamonaviy ingliz tili o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan bilim va malakalarni chuqur va amaliy shaklda rivojlantiradi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947- sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
4. Andreev A.A. Didakticheskie vozmojnosti sredstv informatsionnix telekommunikatsii i ix texnologiy v sisteme distantsionnogo obucheniya // <http://vww.ito.su/1998-99/h/andreev-t.html>.
5. Aripov.M. Aripov M., Muhammadiev Informatika, informatsion texnologiyalar. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent, TDYUI, 2004.– 275 b.
6. Asekretov O.K. Borisov B.A., Bugakova N.YU. i dr. Sovremennie obrazovatel'nie texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatel'stvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://ssiense.vvsu.ru/files/5040BK65-273B-44BB-98K4-KB5092BE4460.pdf>.
7. Bagaeva I.D. Professionalizm pedagogicheskoy deyatel'nosti: sushnost` i struktura // Professionalizm pedagoga: Tezisi dokladov i soobsheniy. – Ijevsk, – SPb, 2000.
8. Bakieva G.X. Semantema: soderjanie i virajenie // Filologiya masalalari. – № 2. – T.: UzGUMYA, 2003. – S. 5-8.
9. Begimkulov U.S.H. Malaka oshirish tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2004. – № 6. – B. 132-137.